

**YENGIL SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION SALOHIYATINI  
TA'MINLASH MANBALARINI KENGAYTIRISH VA RIVOJLANISH  
TENDENSIYALARI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11219269>

**Sharafuddinova Madinaxon Isomuddin qizi**

*Andijon Mashinasozlik institute*

*"Iqtisodiyot" kafedrası stajor-o'qituvchisi*

[madinasharaf30@gmail.com](mailto:madinasharaf30@gmail.com)

+998 93 263 00 69

**Annotatsiya**

*Maqolada yengil sanoat korxonalarida investitsiya salohiyati va rivojlanish tendentsiyalarinining umumiy taʼsifi keltirilgan. Investitsion salohiyatni yengil sanoat korxonalarida investitsiyalar hajmiga taʼsir etuvchi omillar koʻrsatilgan.*

**Kalit soʻzlar**

*Investitsiyalar, salohiyat, modernizatsiya, mexanizmi, investitsiya siyosati, imtiyoz, preferentsiyalar, moliyaviy-iqtisodiy faoliyati.*

**EXPANDING AND DEVELOPING SOURCES OF INVESTMENT  
AUTHORITY IN LIGHT INDUSTRIAL ENTERPRISES.**

**Sharafuddinova Madinaxon Isomuddin qizi**

*intern teacher*

*of the Department of Economics, Andijan Institute*

*of Mechanical Engineering,*

*email: madinasharaf30@gmail.com:*

+998-993-263-0069

**Abstract**

*The article provides a general description of investment potential and development trends in light industrial enterprises. Factors affecting investment potential in light industrial enterprises are shown.*

**Key words**

*Investments, capacity, modernization, mechanism, investment policy, privilege, preferences, financial and economic activity.*

Zamonaviy dunyoda investitsiyalar yengil sanoat rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Korxonalarining investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish ularning rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylanadi. Raqobat ustunligi va barqaror o'sishga erishish investitsiya tendentsiyalari va imkoniyatlarini diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi.


Yangi O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot davrida qulay investitsion muhitni yaratish, iqtisodiyotni sarmoya bilan ta'minlash, investitsion faoliyatning jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatda jadal investitsion siyosatni amalga oshirish va chet el sarmoyadorlarini jalb qilish uchun investitsion jozibadorlikni kuchaytirish zaruratiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifalarning samarali va izchil bajarilishi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish, iqtisodiy tarmoqlararo investitsiyalar yo'nalishi va taqsimlanishini ekonometrik modellashtirish uslubiyatini takomillashtirish, investitsiya samaradorligi va tavakkalchilik darajalarini aniqlash modellarini ishlab chiqish uchun har tomonlama imkon yaratmoqda

Yengil sanoat korxonalarida investitsiya salohiyati va rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish nafaqat kompaniyalarning o'zlari, balki butun iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega. U o'sish imkoniyatlarini aniqlash, sarmoya kiritishning ustuvor yo'nalishlari va jahon bozorida raqobatbardoshlikni mustahkamlash yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida investitsion faoliyatni faollashtirish mexanizmlarini tahlil qilish, ularda mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biridir. Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida investitsion jarayonlarga nisbatan moliyaviy-iqtisodiy mexanizmini tahlil qilishda, hududlarning investitsion faoliyati samaradorligini oshirish maqsadlarini aniqlab olish zarur bo'ladi (1-rasm).

### **1-rasm.**

**Sanoat korxonalarining investitsion salohiyatining oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi**




Investitsiya kiritish uchun eng samarali joylarni izlash investitsion institutlarning hamisha bosh maqsadi bo'lib kelgan. Yengil sanoat korxonalarining investitsion jozibadorligining oshishi oxirgi yillarda tendentsiyaga aylanayotganligini e'tirof etish kerak.

2-rasm ma'lumotlarida yengil sanoat korxonalarida jumladan yengil sanoat korxonalarida investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi omillar ko'rsatilgan. Unda ishlab chiqarish resurslari narxlarini muvofiqlashtirish, davlatning monetar siyosati, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, kafolat mexanizmini yaratish (garov ob'yektlari tarkibi va h.k.), davlat-xususiy sherikchilikni rivojlanganligi, risklarni sug'urtalanish darajasi va investitsion jarayonlarni prognozlashtirish muhim hisoblanadi.

Iqtisodiyotda investitsiya salohiyati, investitsion faoliyatni samaradorligini oshirish orqali mamlakatning barcha iqtisodiyot tarmoqlarida ijobiy natijalarga erishish mumkin. Shuning uchun ham mamlakat darajasida investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi maxsus davlat tashkiloti tuzilib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o'rtasida ularning imkoniyati, tutgan o'rni, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda investitsiyalarni jalb etishda mutanosiblikni ta'minlash mazkur tashkilotning muhim vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.

**2-rasm.**

**Investitsiyalarning multiplikator mexanizmining iqtisodiy tuzilishi**



Yengil sanoat korxonalarida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qisqa va uzoq davrga mo'ljallangan loyihalar ishlab chiqish, ularni moslashtirishning samarali tizimini yaratish, mamlakat ichidagi xususiy va xorijiy investorlarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo'yicha investitsion loyihalar, dasturlarni moliyalashtirishga jalb etishi va amortizatsiya siyosatini amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub'yektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferentsiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim».

Mintaqalarga investitsiyalarni jalb etish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni o'rganish asosida mazkur tadqiqotda hududlarning investitsion jozibadorligini ko'rsatuvchi omillar guruhlangani holda yagona tizimga keltirildi. Bunda asosiy guruhlar sifatida hududning kompleks ko'rsatkichlari aks etadigan

ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini belgilovchi nuqtai nazarlar va ilmiy-amaliy qarashlar umumlashtirilgan va klassifikatsiyalangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. -T.: Moliya, 2003.
2. Jo'raev A.S, Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B. Investitsiya loyihalari tahlili. - T.: «SHarq», 2007. 52-b.
3. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)